

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



УО'К: 101.1

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA  
NORMATIV-HUQUQIY ASOSLAR**

**НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ МОЛОДЕЖИ В  
УЗБЕКИСТАНЕ**

**NORMATIVE AND LEGAL FRAMEWORK FOR SOCIAL SUPPORT OF YOUTH IN  
UZBEKISTAN**

Sattarov Umidulla Ulashovich

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limi  
boshlig'i, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarini hal etish bo'yicha meyoriy-huquqiy baza faol rivojlanmoqda. Bu jarayon yoshlarning turmush farovonligi, bilim olishi va jamiyat hayotidagi faol ishtirotkini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli siyosat va qonun hujjatlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu boisdan ham mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirish jarayoni asosiy tushunchalarini belgilab beruvchi va yoshlarni qo'llab-quvvatlash asoslarini belgilovchi muhim qonun hujjatlarining qabul qilinishi hamda ushbu hujjatlar yoshlarni tadqiq qilish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

**Аннотация**

В Узбекистане активно развивается нормативно-правовая база поддержки молодежи и решения различных социально-экономических и политических задач. Этот процесс предполагает разработку комплексной политики и законодательства, направленных на обеспечение благосостояния, образования и активного участия молодежи в жизни общества. В данной статье рассматривается принятие важных правовых документов, определяющих основные концепции процесса формирования молодежной политики в Узбекистане и основы поддержки молодежи. Эти документы служат основой для научного исследования и реализации молодежной политики.

**Abstract**

In Uzbekistan, the regulatory and legal framework for supporting young people and addressing various socio-economic and political tasks is actively evolving. This process involves developing comprehensive policies and legislation aimed at ensuring the well-being, education, and active participation of young people in society. Therefore, this article examines the adoption of significant legal documents that define the main concepts of youth policy formation in Uzbekistan and the foundations of youth support. These documents serve as the basis for the research and implementation of youth policy, providing a scientific foundation for further development and application in this field.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, turmush farovonligi, ijtimoiy-siyosiy hayot, yoshlarga oid milliy siyosat strategiyasi.

**Ключевые слова:** Узбекистан, молодежная политика, поддержка молодежи, благополучие, общественно-политическая жизнь, стратегия национальной молодежной политики.

**Key words:** Uzbekistan, youth policy, youth support, well-being, socio-political life, national youth policy strategy.

**KIRISH**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning meyoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish yoshlarning ko'p qirrali ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kompleks yondashuvni nazarda tutadi. 1991-yilda mustaqillikka erishgan O'zbekiston milliy kun tartibining muhim jihatni sifatida yoshlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berdi. Dastlabki qonunchilik nuqtai-nazardan qaraganda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, asosiy e'tiborni ta'lim, bandlik va ijtimoiy ta'minlashga qaratilgan dastlabki huquqiy asoslar yaratilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasida yoshlarning ta'limga olish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot olish huquqi ta'kidlangan holda ularning huquqlari kafolatlangan. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun kabi maxsus qonunlar, jumladan, ta'limga olib, ish bilan ta'minlash va madaniyat bilan shug'ullanishiga oid qoidalarni o'z ichiga olgan yoshlarni rivojlantirish borasidagi davlat majburiyatlarini belgilab beruvchi qonunlar qabul qilindi. Hukumat ta'limga olib, bandlik va sog'liqni saqlash kabi sohalarda yoshlarni

## SIYOSAT

har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "O'zbekiston yoshlari" dasturi kabi turli milliy dasturlarni amalga oshirdi. Yoshlarga oid siyosatni nazorat qilish va amalga oshirish uchun Yoshlar ishlari agentligi kabi davlat organlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, bugungi kunda yoshlar tashabbuslarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va resurslar bilan ta'minlash uchun NNTlar bilan hamkorlik qilish ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi davrda maktablar, kollejlar va universitetlarning bozor ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lif va kasbiy ta'lifni amalga oshirishdagi roli yuqori hisoblanadi. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan yoshlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlash bandlik dasturlarini muntazam ravishda ishlab chiqilayotganligi e'tiborga molik. Shuningdek, yoshlar uchun ish o'rinalarini yaratish, jumladan, kasb-hunar o'rgatish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tashabbuslarini ilgari surilishi hamda sog'liqni saqlash, ruhiy salomatlik xizmatlari va sog'lom turmush tarzidan foydalanishni ta'minlaydigan siyosatni tobora rivojlantirish, yosh oilalar va jismoniy shaxslarni uy-joy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqilishi ham yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini qanchalik darajada samarali ishlayotganligidan dalolat beradi. Bizning nazarimizda, O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning meyoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni jadal va serqirra bo'lib, yoshlarning rivojlanib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy moslashish va takomillashtirishni taqozo etadi. Keng qamrovli siyosat, mustahkam institusional qo'llab-quvvatlash va qarorlar qabul qilish jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilish orqali O'zbekiston yoshlarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi va ularning milliy taraqqiyotga faol hissa qo'shishini ta'minlaydigan qulay muhit yaratishni maqsad qilgan. Bugungi yoshlar o'zlarini mustaqil O'zbekiston davlatining yoshlaridek his qilmoqda. Ularning aksariyati vatanparvar yoshlardir. Biz ham shunday mehnat qilishimiz kerakki, bu yoshlarning barchasi vatanparvar bo'lib, Vatanga xizmat qilishni o'zining yeng sharafli burchi deb bilsin.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yoshlar jamiyatning harakatlantiruvchi kuchidir. Shu bilan birga, u doimo izlanuvchan, innovatsion kuchdir. Sog'lom yosh – sog'lom avlod demakdir. Yaqin tarixiy o'tmishimizda – sho'rolar davrida bu tuzilishga xos bo'lgan qoliplarga ko'ra, jamiyatda mavqega yega bo'lish, davlat tuzilmalarida ishlash uchun ma'lum bir yoshni bosib o'tish kerak yedi. Bunday tuzilmada yoshlar kamoloti, ularning jamiyatdagi o'rni haqida gapirishga arzimas edi. Biroq, O'zbekiston o'zining tarixiy mustaqilligini tiklaganidan so'ng, mamlakatimiz yoshlarini sog'lom ruhda tarbiyalash, ularni chinakam fuqaro sifatida shakllantirish yo'lida maqsadli islohotlar boshlandi. Hozirgi yoshlarda va kelgusi avlodda o'z davlati, xalqining tarixini shak-shubhasiz bilish bilan bir qatorda, jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini chuqur o'rganish zarurligini tushunish va anglash hissini tarbiyalash lozim.

Har bir davlatning asosiy vazifasi – kelajagiga ishonadigan avlodni shakllantirishdir. Kelgusi yillarda yoshlarni vatanparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalashni kuchaytirish va qadrlash, ularda innovatsion fikrlash va raqobatbardosh bilimlarni yegallash, yerkin rag'batlantirish zarur. Davlat dasturining asosiy maqsadi respublikamizda yoshlarga oid siyosatning yanada samarali amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat. Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan davlat siyosatida yoshlar mavzusining dolzarbliyi yana bir bor yaqqol tasdiqlandi. Ha, yoshlar jamiyatning harakatlantiruvchi kuchidir. Bu davrning har bir daqiqasidan unumli foydalanish kerak. Zero, "Jahonda globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo'lgani kabi yoshlar muammolarini tadqiq qilish, ular bilan ishlash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda ilg'or texnologiyalaridan foydalanish taqozo yetilmoqda. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'smirlarni jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash, ularning salomatligini mustahkamlash, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilishni takomillashtirish va targ'ibot sohalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari har bir oilada o'smir yoshlarni ijtimoiyma'naviy tarbiyalash, salbiy omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf yetish, o'z qadriyatlarimizni targ'ib qilish dolzarblashmoqda".

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning huquqiy bazasi yoshlarning ijtimoiy farovonligi va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan turli qonunlar, meyoriy hujjalari, tashabbus va dasturlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi fuqarolarning, jumladan, yoshlarning huquq va majburiyatları, ijtimoiy himoya tamoyillari haqidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi. 1992-yilda qabul qilingan "Yoshlar to'g'risida"gi qonun yoshlarning huquqiy holati, ularni ijtimoiy muhofaza qilish,

bandlik, ta'lif, sog'liqni saqlash va madaniyat bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi. 2019-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yoshlarning turmush sharoitini yaxshilash va salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Bulardan tashqari bizga ma'lumki, davlatning yoshlari salohiyatini ko'rsatuvchi siyosat va dasturlar bor. Bunday siyosat yoshlarning ta'limga kirishi, ijtimoiy mehnatga qo'l to'g'rilashi, mehnat va mahorat olish muassasalarini yanada muvofiqlashtirish, yoshlarni nafaqatlantirish va saqlash fonida quyidagilarni amalga oshirish mo'ljallanganligi bilan ham ajralib turadi.

O'zbekistonning yoshlari sohasi dasturlari mehnat, salohiyat, ijtimoiy yondashuv va madaniyatni qo'llab-quvvatlashda asosiy rol oynaydi. Bu dasturlar yoshlarning o'zini tarbiyalash, mehnat bilan o'qishini ta'minlash, ijtimoiy-ma'rifiy proyektlarni yanada muvofiqlashtirish, yoshlarning madaniyat va sport yondashuvlariga ommaviy muhofazani ta'minlashga oid amallarni mo'ljallangan. O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy tashkilotlar va fondlar ko'proq o'rni ega. Bu tashkilotlar yoshlarga ta'lif, madaniyat, sport, ijtimoiy hamkorlik va boshqa muhim masalalarda yordam beradi. O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, odatda, ular uchun mavjud bo'lgan huquqlar, himoya va xizmatlarni belgilab beruvchi meyoriy-huquqiy xujjalarni bilan tartibga solinadi. O'zbekiston huquqiy tizimi yoshlarni turli xil ekspluatatsiya, zo'ravonlik, kamsitish va zo'ravonlikdan himoya qiladi. Bu bolalar mehnati, bolalarni himoya qilish, balog'atga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov va diskriminatsiyaga qarshi qonunlarni o'z ichiga olishi mumkin.

O'zbekiston yoshlari huquqlari va farovonligini qo'llab-quvvatlovchi xalqaro konvensiya va bitimlarni imzolagan, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi. Hukumat o'z siyosati va amaliyotini ushbu bitimlarda bayon yetilgan tamoyillar va standartlarga muvofiqlashtirishga majbur. 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Yoshlarga oid siyosatni samarali shakllantirishning asosiy qoidalari" to'g'risida rezolyutsiya qabul qilingan edi. Ushbu hujjat yoshlarga oid siyosatni shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Keyinchalik, 2018-yil 7-dekabrda "Yoshlarning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha roli hamda sayi-harakatlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" Deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu hujjatlar, birgalikda, yoshlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim hujjatlar ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning meyoriy-huquqiy asoslari ularning har tomonlama rivojlanishi, farovonligi va jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Biroq, ushbu tizimlarning samaradorligi amalga oshirish, resurslarni taqsimlash va yoshlarni muammolariga jamiyatning munosabati kabi omillarga qarab farq qilishi mumkin.

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy normativ-huquqiy asoslar mazkur maydonda keng o'tashgan, ulardan foydalanish yoshlarning qonunga bo'lgan to'g'riligini ta'minlaydi. Har qanday jamiyatda yetakchi ijtimoiy-demografik guruh sifatida qadrlanadigan yoshlarni tarixan taraqqiyot jarayonida katta rol o'ynagan va o'tmishda bu voqelik yanada mustahkam poydevorga barpo yetish bilan birga kelgan. Biz yashayotgan yangi asrda yoshlarning umumiy taraqqiyot jarayoniga qo'shayotgan hissasi tobora yuksalib borayotganining samarasidir. Borgan sari globallashib borayotgan zamonaviy dunyomizga nazar tashlar yekanmiz, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va boshqa muhim sohalarni qamrab oluvchi tadbirlar markazida asosiy kuchlar – yoshlarni yekanligiga yana bir bor yaqqol guvoh bo'lish mumkin. Shu ma'noda, yosh avlodga oid aniq va puxta o'ylangan siyosatni ishlab chiqish taraqqiyot darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turgan mamlakatlarning asosiy ye'tiborida yekanligi bejiz yemas, O'zbekiston ham bundan mustasno emas.

Davlatimiz va uning rahbari tomonidan yoshlarga nisbatan olib borilayotgan maqsadli siyosat ushbu guruh vakillarining jamiyat hayotiga kengroq jalb yetilishiga, ularning zamonaviy O'zbekistonning yanada jadal rivojlanishidagi roli oshishiga olib kelayotgani shubhasiz haqiqatdir. Shu bilan birga, yuqorida qayd yetilgan qonun yoshlarning bilim va ko'nikmalarini, tabiiy salohiyatini samarali ro'yobga chiqarish, jamiyatda munosib o'rin yegallashini ta'minlaydigan shart-sharoit yaratishda muhim ahamiyat kasb yetdi. Mazkur qonun yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va madaniy hayotga faol jalb yetish, salomatligi va jismoniy kamolotini asrash, iqtidorli yoshlarni, yosh oilalar va yoshlarni tashkilotlariga davlat tomonidan ye'tiborni kuchaytirish, aholi bandligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb yetdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati raisining birinchi o'rinosari Sodiq Safoyev 2018-yil 18-mayda AQSH poytaxti Vashington shahrida Amerika ommaviy axborot vositalari hamda demokratik tashkilotlari uchun o'tkazilgan Milliy press-klub yig'ilishida bu boroda quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Fikrimcha, ushbu islohotlar haqiqiy va zaruriy deb hisoblash uchun eng kamida ikkita sabab mavjud. Birinchisi – O'zbekistonning hududiy joylashuvi,

## SIYOSAT

merosi, o'tmishi sababli yuzaga keladigan tahidlarga qarshi turish uchun haqiqiy siyosiy tub o'zgarishlar va modernizatsiya zarur, degan aniq nuqtai nazar mavjud. Bu siyosiy islom va jamiyatning radikallashuviga qarshi yagona usuldir. Samarador davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurash – bularning barchasi barqaror taraqqiyotga erishish uchun zarurdir”.

Yurtboshimiz rahnamoligida ulkan muvaffaqiyatlar bilan amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati yuksak samaralar bilan qayd yetilgan avlodni O'zbekiston xalqining tarixiy-madaniy merosiga, milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. vatanparvarlik, O'zbekistonlik va davlat arbobi tamoyillariga asoslanib, yanada katta muvaffaqiyatlarga yerishishga xizmat qiladi. O'zbekiston yoshlari jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol faolligi bilan ajralib turgani ham shundandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev “Biz yoshlarga doyir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqt davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb ta'kidlaganlar.

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'z ichiga yoshlar hayotini yaxshilash, ularning kamoloti uchun sharoit yaratishga qaratilgan turli dastur va tashabbuslarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari qatoriga quydagilar kiradi:

**Ta'limga:** Hukumat oliy ta'limga olish imkoniyatini ta'minlash va yoshlar uchun turli ta'limga dasturlarini qo'llab-quvvatlash orqali ta'limga sarmoya kiritadi.

**Bandlik:** Bandlik dasturlari yoshlarga ish topish, kasbiy ta'limga olish yoki tadbirkor bo'lishga yordam beradi.

**Yoshlar tashkilotlari:** Davlat ijtimoiy va madaniy loyihalarda ishtirok yeta oladigan, yoshlar faolligi va yetakchiligin rivojlantirishga ko'maklasha oladigan yoshlar tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

**Sport va madaniyat:** Turli sport va madaniy dasturlar yoshlarni sog'lom turmush tarzi va madaniy rang-baranglikka jalb qilish maqsadida tashkil yetilgan.

**Institusional qo'llab-quvvatlash:** Institutlar talabalarga turli xizmatlar va qo'llab-quvvatlash dasturlarini, jumladan, maslahat, psixologik yordam va shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim yetadi.

**Axborot bilan ta'minlash:** Internet, ijtimoiy tarmoqlar va jamoat joylaridagi tadbirlar kabi turli kanallar orqali yoshlarning huquqlari, imkoniyatlari va resurslari haqida ma'lumot berish.

**Bular O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarning bir necha misolidir.** Bu chora-tadbirlar mamlakatimiz yoshlarining turli yehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash uchun qulay va samarali yechimlarni beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, farmoyish mamlakatimizda yoshlarga oid siyosatni yanada rivojlantirish, menejment sohasida yoshlarning faol ishtirok yetishi uchun shart-shqdriyataroit yaratish, yosh mutaxassislar bandligini ta'minlash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal yetishdek muhim maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Yoshlarimiz xalqaro miqyosda davlatimiz ko'magida xorijiy davlatlardagi ta'limga muassasalarida o'tkazilayotgan ko'plab ko'rik-tanlov, tadbirlar, anjumanlarda O'zbekiston nomidan munosib ishtirok yetayotgani inkor yetib bo'lmash haqiqatdir. Davlatimiz tomonidan yoshlarning bilim va ko'nikmalariga yuksak baho berish, ularning muammolarini hal yetish borasida amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlar bu borada amalga oshirilayotgan siyosatning yeng muhim yo'nalishlaridandir. Ayni paytda yoshlarni uyushqoqlik bilan ishslash, ularning salohiyatidan samarali foydalanish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Yoshlarga oid davlat siyosati – bu yoshlarning bilim va ko'nikmalarini, tabiiy salohiyatini samarali ro'yobga chiqarish, jamiyatda munosib o'rin yegallashini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratish maqsadida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalar va chora-tadbirlar tizimidir. Yoshlarning har tomonlama kamol topishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning global raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. “Respublikamizda o'smir yoshlarning jamiyat hayotidagi siyosiy, ijtimoiyma'naviy va madaniy sohalarda qo'llab-quvvatlashga doir keng ko'lamli islohotlar oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalashda targ'ibot texnologiyalarining amaliyotdagi

holati shakllantirishda milliy-ma'naviy meros, xususan, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odat, marosim va an'analar, shuningdek, milliy tarbiya o'ziga xos tomonlarini rivojlantirishda o'z aksini topadi".

Yangi avlod kamolotining asosiy vositasi yoshlarning davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ishtirokini ta'minlashdan iborat.

Yoshlarga oid davlat siyosati ana shu maqsad va tamoyillarni ro'yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilib, tegishli huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topib, davlat organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda:

- yosh avlodning Vatanga, o'zbek xalqi tarixiga muhabbat. madaniy merosga, davlat tili va ramzlariga, milliy-axloqiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, ularni harbiy xizmatga tayyorlash;
- yoshlar o'tasida huquqbazarlik, giyohvandlik va boshqa zararli odatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, bozor iqtisodiyoti asoslari bo'yicha bilimlarni yegallash, kasbiy tayyorgarligini oshirish va bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar, shu jumladan, yosh oilalar muammolarini hal yetishga ko'maklashish;
- yoshlar salomatligini muhofaza qilish, ommaviy jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok yetishi uchun sharoit yaratish, bolalar va yoshlar tashkilotlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- yoshlarning xalqaro hamkorligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish, yoshlar tashkilotlarining xalqaro aloqalarini yo'lga qo'yish, ularning vakillarining xalqaro tadbirlarda ishtirok yetishiga ko'maklashish.

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotning jadal sur'atlariga yega, mustahkam ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka yega zamonaviy davlatadir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan muvaffaqiyatli siyosat fonida samarali iqtisodiy siyosat, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni muntazam ravishda amalga oshirish, milliy taraqqiyotning o'zbek modelining shakllantirilishi va maqsadli natijalarga yerishilayotgani ta'kidlandi. Bu borada qonunchilik bazasi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun yeng qulay shart-sharoitlarni yaratish, qonun ustuvorligi va boshqa shu kabi chora-tadbirlar O'zbekistonning jadal rivojlanishini ta'minlaydi va istiqbolli taraqqiyot asoslarini shakllantiradi. Shubhasiz, bularning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilg'or yoshlar siyosati samaradorligini oshirmoqda. Buni O'zbekiston milliy qudratining yanada yuksalishini belgilovchi muhim omil sifatida baholash mumkin.

Umuman olganda, yoshlarga oid oqilona siyosat har bir davlat milliy taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati haqida gapirganda, umume'tirof yetilgan ta'rif shundan iboratki, bu siyosat har tomonlama rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. yoshlar va ularning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki. Davlatning yoshlarga oid siyosati strategik xususiyatga yega bo'lib, ushbu siyosat fonida yoshlarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratish, ularning imkoniyat va ko'nikmalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, qonun hujjatlari va davlat tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilishiga erishishdir.

O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi dastur va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar yoshlarning ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalasi dolzarb hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi ta'lim tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yuqorida belgilangan islohotlar ma'naviyatning nafaqat jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari balki uning siyosiy mohiyatini anglashda ham muhim

**SIYOSAT**

o'rinni egallaydi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori asosida yoshlar o'tasida kitob mutolaasi va muhokamasini kuchaytirilishi ham mamlakatimiz ma'naviy hayotini yanada yuksaltirishda muhim o'rinni egallaydi

**XULOSA**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish uchun tegishli muassasa va tashkilotlar tashkil yetilmoqda. Jumladan, yoshlar siyosati sohasidagi dastur va tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, yoshlar bilan ishslash bo'yicha jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarini tashkil yetish kiradi. Davlatimiz tomonidan yoshlarning ta'lim va ma'rifat masalalariga, jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ye'tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarda qadriyatlar, odob-axloq va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. O'zbekiston yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohasida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi, yoshlarning turmush sharoiti va istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan turli dastur va loyiha tadbirlarida ishtirok yetadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning meyoriy-huquqiy bazasini shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, ularda aholi farovonligi va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan qonunlar, dasturlar, strategiyalar va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 38-сон, 1029-модда.
2. Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.-Т.,Ўзбекистон:НМИУ, 2016. 14-б.
3. Xusanov B.Q. Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. TOSHKENT– 2023. -B.5.
4. Xusanov B.Q. Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashda targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. TOSHKENT– 2023. -B.5.
5. <http://xs.uz/index.php/uzhzhatlar/item/11097-maktabgacha-ta-lim-tizimini-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-t-risida>
6. <http://www.gazeta.uz/ru/2018/05/18/changes/>